

## Tilni o'rganmoq - keng imkoniyatlar eshigini ochadi

Chet tilini mukammal o'rganishni istagan har bir inson uni o'zi mustaqil tarzda ham o'zlashtirsa bo'ladi. Xorijiy tilni o'rganish kishidan qunt, mustahkam iroda va tartibga asoslangan kun rejasi talab etiladi. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida esa bu borada ikki omonlama imkoniyat bor. Birinchidan tilni o'quv yili uchun tayyorlangan dars jadvali asosida tartibda o'rganadi, ikkinchidan esa mustaqil tayyorlangan ishlarini ustozlaridan tekshirtirib qo'shimcha maslahatlar olishi mumkin.

Bugun 30 noyabr Ingliz tili kafedrasida katta o'qituvchisi Azizova Maqsuda "My favourite film. Describing imaginary date with a famous person" mavzusida Ochiq ma'ruza o'tdi. Ma'ruzada o'qituvchi talabalarga mavzu haqida tushinchalar berdi, shundan so'ng har bir talaba qisqacha o'zi yoqtirgan filmi haqida fikr bildirdi. Uyga vazifa qilib esa o'zining sevimli film qaxramoni haqida voqea saxnalashtirib, matnini ingliz tili qoidalariga zid bo'lmagan tarza yozish vazifa qilib topshirildi.



**O'quv-uslubiy boshqarma uslubchisi Maftuna Tosheva axboroti**